

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY

**GERMENEVTIK TA‘LIMOT ASOSIDA TALABALARNING NUTQIY VA  
LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH  
TEXNOLOGIYASI.**

*Djo‘rayeva Sh.Sh.  
TAFU Pedagogika  
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**ANNOTASIYA** Talabalarni aqliy va intellektual jihatdan har tomonlama salohiyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim masalalari darajasiga ko‘tarilgan. Shu nuqtai nazardan talabalarning samarali tinglash, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta‘limotdan foydalanish texnologiyalari rivojlantirishga oid ushbu maqola ishi dolzarb sanaladi. Talabalarning tinglash, tushunish ko‘nikmalarini germenevtik ta‘limotdan foydalanish asosida samarali omillarini aniqlash germenevtik ta‘limotdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar.** Ona tili ta‘lim mazmuni, talabalarni tinglash, tushunish, ko‘nikmalari, rivojlantirish, germenevtik ta‘limot, o‘rgatish, pedagogik-psixologik xususiyatlar, samara, omillar, aniqlash, pedagogika, shart-sharoitlar, intensiv o‘rgatish, kognitiv jihat, kompleks tayyorlash, pedagogik-psixologik xususiyatlar, variativ yondashuvlar.

**KIRISH.**

Mamlakatimizda Ona tili ta‘lim mazmuni ona tili ta‘lim mazmuni tizimini tubdan isloh qilish va jahon standartlari darajasida optimallashtirishning huquqiy-me‘yoriy asoslari takomillashtirildi. Shuningdek, ona tili ta‘lim mazmuni va ta‘lim-tarbiyaning Davlat standartida talabalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish maqsadida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, innovatsion ta‘lim shakllari hamda texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Shuning uchun Ona tili ta‘lim mazmunida, sohada ana shunday yuksak islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir” [10]. Ona tili ta‘lim mazmunida talabalarni aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik omillari, didaktik tamoyillarini zamonaviy kontekstda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, talabalarning tinglash, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta‘limotdan foydalanish texnologiyalarini samarasi OTMda metodik va didaktik tayyorlashda ona tili ta‘lim mazmuni ta‘minoti hamda axborot muhitini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda O‘RQ-595-son “Ona tili ta’lim mazmuni ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, va sohaga oid qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalarning samarali tinglash, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta’limotdan foydalanish texnologiyalari bo‘yicha yurtimiz pedagog olimlaridan Sh. Yusupova, B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, L.Raupova, G‘.Hamrayev. M.E.Axmedova, A.Hamrayev, M.Ernazarova, T.Koziyeva, kabi tadqiqotchilar tomonidan nutq va muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari o‘rganilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida Ye. I. Tixeva Ye. A. Flerina L. Verbiskaya, L. Vigotskiy, L. Volkova, V. Seliverstov, I. Romanova, I. Novichkova, A. Tambovseva, O. Safonova kabi olimlar tomonidan so‘zni shakllantirish usullari, muloqotga kirishish va idrok etish texnikasini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Rus pedagoglari S.L.Rubenshteyn, A.N.Leontyev ta’lim jarayonida umumiy pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida amaliyotga nutqiy tatbiq etishni taklif etadi. J. A. Ponomarev va O.R Roziqov kabilar tinglash, tushunish ko‘nikmalarini ularning didaktikada tutgan o‘rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, A.N.Leontyev “tinglash, tushunish ko‘nikmalarini” tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi:– muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo‘yilgan aniq maqsaddir”. T.Kaziyeva nutq mazmunida tilning anglash, bilish, tushunish ilmiy nazariy asoslarini o‘rgatishni nazarda tutilishini, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ta’kidlaydi. Jahon pedagogikasida tinglash, tushunish ko‘nikmalarini metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug‘ullangan. Shuni ta’kidlash joizki, G‘arb pedagogikasining didaktik jarayoni amaliylikka asosiy e‘tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Respublikamizda talabalarni ona tili ta’lim mazmuni bilim, aqliy va intellektual jihatdan har tomonlama salohiyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim masalalari darajasiga ko‘tarilgan. Shu nuqtai nazardan talabalarga ona tili ta’lim mazmunida samarali tinglash, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta’limotdan foydalanish texnologiyalari rivojlantirishga oid ushbu maqola dolzarb sanaladi. Talabalarning tinglash, tushunish ko‘nikmalarini germenevtik ta’limotdan foydalanish asosida samarali omillarini aniqlash va texnologiyalarni rivojlantirishda germenevtik bilimlar evolyusiyasini tahlil qilish asosida bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligi hamda tafakkurlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlangan vatalabalarning ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning uslubiy asosi sifatida germenevtik yondashuvning mohiyati aniqlandi. Shuningdek, hissiy va rasional birlikning tamoyillariga rioya qilgan holda hal qilinadigan shaxsga yo‘naltirilgan hissiy-majoziy

vaziyatlar hermenevtik sifatida taqdim etildi va ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy vositasi aniqlash hamda falsafiy hermenevtika asosida nutq o‘stirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritildi; ona tili ta’lim jarayonlari hermenevtik tahlil etish hamda joriy etishning metodik ta’minoti takomillashtirilgan hamda tushunish, anglashning har qanday holati “hermenevtik doira” asosida amalga oshishi asoslandi hamda tushunishning ko‘p qirrali hodisa sifatida praktsiologik, aksiologik, ekzistensial-psixologik jihatlari aniqlashtirildi, tushuntirishning deduktiv-nomologik, intensional, sababiy- deterministik, lingvistik, psixologik va boshqa jihatlari takomillashtirish va ta’limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish maqsadida hermenevtik yondashuv doirasida talabani birgalikdagi ijodiy faoliyatini tashkil etish, shaxsiy xususiyatlarini, ijodkorlikning boshlang‘ich darajasini va o‘zini o‘zi rivojlantirish motivasiyasini tashhishlash, shaxsga yo‘naltirilgan hissiy-majoziy vaziyatlarni birgalikda qurish (vizual va og‘zaki tasvirlar asosida), ushbu vaziyatlar sharoitida sub’ekt-sub’ektiv faoliyatni amalga oshirish kabilar takomillashtirish va taqdim etilgan “Nutq: tushunish va anglash” modelning samaradorligini baholash, talabalar ijodining rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beradigan mezon-dagnostikasi ishlab chiqildi (ijodkorlik qobiliyatining shaxsiy-motivasion va kognitiv tarkibiy qismining rivojlanish darajasini baholashga qaratilgan kompleks mezonlar, ko‘rsatkichlar asosida); nutqning hermenevtik konsepsiyasi asosida uning tarixiy, ilmiy asoslari o‘rganilib, zamonaviy nutq o‘stirishdagi yo‘nalish sifatidagi ahamiyati yoritildi va umumiy tasnifi takomillashtirishdan iborat.


Talabalarning akademik-ijodiy, nutqiy-motivatsion harakat trayektoriyasini faol tashkil etishga mo‘ljallangan tinglash, tushunish, ifodalash o‘quv topshiriqlarini teskari ta’lim elementlariga adaptivlashtirish asosida takomillashtirilgan hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o‘rgatishning verbal va noverbal vositalariga asoslangan hamkorlik texnologiyalari mnemotexnika elementlarini dialogik muhitda ritmik-emotsional qo‘llash asosida takomillashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ona tili ta’lim mazmuniga oid bilimlar xalqaro ta’lim standartlari darajasida dunyoning yetakchi oliy dargohlari bilan hamkorlik qilish, oliy ma’lumotli filolog mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, nutq o‘stirishda hermenevtik talablarni amalga oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish davr talabidir.

### **MUAMMONI O‘RGANILGANLIGI.**

Germenevtika, tom ma’noda juda keng doirada qo‘llaniluvchi sohalararo ta’limotdir. Hermenevtika, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san’atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi. “Germenevtika” yunoncha “hermeneukos” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuntiruvchi”, “talqin etuvchi” ma’nosini bildiradi. Falsafa tarixi ensiklopediyasida “Germenevtika –keng ma’noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi ta’limot, tor ma’noda, ona tili ta’lim mazmunida matnlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metod va qoidalar to‘plami”, deb ta’kidlangan. Xurramova M.A.

Bularga esa talaba faqat germenevtik ta’lim faoliyati tufayligina erishadi



1-rasm

### Didaktik oyin bosqichlari

O‘yinning muhim ahamiyati shundaki, ularda ijtimoiy hayotdagi voqelik o‘z ifodasini topadi. Bu personajlar orasida muloqot, o‘zaro hamkorlik va birgalikdagi harakatlarda namoyon bo‘ladi.

### Germenevtik yondashuv asosida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tajribalariga batafsil to‘xtalamiz:

#### QIYOSIY TAHLIL

<p><b>1. Amerika Qo‘shma Shtatlari</b> O‘yinlar va platformalar: <b>Elementary Schools:</b> “Minecraft: Education Edition” va “Kahoot!” kabi platformalar asosida keng qo‘llaniladi. O‘qituvchilar germenevtik ta’limda ma’lumotlarni taqdim etadi.</p>	<p><b>Minecraft: Education Edition:</b> Ushbu o‘yin talabalarga ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Germenevtika, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar fanning asosini tashkil qiladi.</p>	<p><b>Germenevtik ta’lim jarayonidagi afzalliklari:</b> Germenevtik ta’lim o‘yinlar orqali o‘qish jarayoni ko‘proq interaktiv va qiziqarli bo‘ladi. Talabalarning nutqiy ko‘nikmalarini tushuntirish, talqin etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.</p>
<p><b>2. Niderlandiya</b> <b>Germenevtik yondashuvi:</b> “Germenevtik in Education” loyihasi asosida germenevtik</p>	<p>Niderlandiyada “Germenevtik in Education” loyihasi asosida ta’lim elementlari, masalan, ball tizimi joriy etilgan.</p>	<p><b>Ta’lim jarayonidagi afzalliklari:</b> Filologik ta’lim jarayoniga qiziqish va motivatsiyani oshiradi.</p>

ta‘lim metodik, pedagogik, didfaktik yondashuv asosida ta‘limga joriy etilgan.	Raqobatni his qilish imkoniga ega.	O‘qituvchilar talabalarning qiziqishini va muvaffaqiyatini kuzatish imkoniyatiga ega.
<b>3. Janubiy Koreya Edu Game dasturi: Elementary Schools:</b> “EduGame” dasturi orqali filologik ta‘lim texnologiya uzliksiz ta‘limda qo‘llanilmoqda.	Janubiy Koreyada “EduGame” dasturi orqali onlayn loyiha usullari taqdim etiladi. Talabalar bilimlarini rivojlantirish uchun ulardan fooydalanadi, ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.	<b>Ta‘lim jarayonidagi afzalliklari:</b> Germenevtik ta‘lim jarayonida asosida talabalarning o‘zaro aloqalari kuchayadi. muammolarni hal qilish va o‘z fikrlarini ifoda etish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.
<b>4. Xitoy Interaktiv o‘yinlar: Primary Schools:</b> Interaktiv metodlar asosida talabalarga muammolarni hal qilish imkoniyati beriladi. rivojlantiradi.	Xitoyda o‘yin asosida ta‘lim orqali interaktiv o‘yinlar ishlab chiqiladi. Germenevtika, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash talabalar o‘yinlar orqali muammolarni hal qilish va qiziqarli vazifalarni bajarish orqali o‘rganadilar.	<b>Ta‘lim jarayonidagi afzalliklari:</b> talabalarning germenevtik ta‘lim asosida tushunish, tushuntirish motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.
<b>5. Buyuk Britaniyada Germenevtik ta‘lim texnologiyalari asosida ta‘lim dasturlari:</b> Bu platformalar orqali o‘qituvchilar interaktiv vazifalar va germenevtik yondashuv asosida talabalar tushunish, tushuntirish rag‘batlantirish usullarini o‘rganadilar.	Buyuk Britaniyada “Teach Primary” va “Teach Secondary” kabi platformalar orqali o‘qituvchilar ta‘limni qo‘llashga yordam beradigan germenevtik resurslar bilan ta‘minlanadi.	<b>Ta‘lim jarayonidagi afzalliklar:</b> o‘qitish jarayonining qiziqarli va samarali bo‘lishi ta‘minlanadi. Talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

O‘zbekistonda ona tili ta‘lim sifatini oshirish choralari ko‘rib, talabalarning nutq o‘stirilishiga qo‘yilayotgan vazifalar talab darajasida egallashlariga qaratilgan o‘quv-metodik ta‘minot zamon talablari asosida takomillashtirilmoqda, ona tili ta‘lim mazmuni ta‘limining amaliy jihatini kuchaytirishga qaratilgan ta‘limiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ona tili ta‘lim mazmuni ta‘lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida sifatli ta‘lim amalga oshirish uchun nutqni talqin va tahlil qilish, uni sharhlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham germenevtika masalasi o‘zbek olimlari tomonidan ham keng o‘rganila boshlandi. Adabiyotshunos olimlar Bahodir Karim, I.Rahimov, A.O‘tamurodov, N.Shermuhamedova, K.Nazarovlar tomonidan ham germenevtikaning ayrim masalalari o‘rganildi. Bahodir Karim adabiyotshunos sifatida germenevtikani faqat badiiy ijod asarini o‘rganish vositasi, deb hisoblaydi. U “Sharq germenevtikasi” xususida ham fikr bildiradi va uni G‘arb germenevtikasining rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmaganligini ta‘kidlaydi. Biroq, Sharq

germenevtikasi deb atalayotgan Qur'on ma'nolari, tafsiri mohiyatan biz o'rganayotgan germenevtikaga to'la mos kelmaydi. Chunki, tafsirshunoslik va falsafiy germenevtika o'rtasida katta farq bor. N.Shermuhamedova tushunish va tushuntirishning germenevtik asoslarini falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etadi va tushunishning muayyan hodisa ma'nosini anglashdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Shuningdek, M.Abdullayeva, Sh.Jabborov, G.Navro'zova, G.Yunusovalarning ilmiy ishlarida, maqolalarida ham germenevtikaning ilmiy bilishdagi ahamiyati hamda tarixiy negizlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Ta'kidlash joizki, metodist olim T.Kaziyeva, yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning germenevtikaga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlari mavjud emasligini, havolalarda berilgan manbalarda esa tushunish va tushuntirish masalasiga umumiy xulosalar berilganligini ta'kidlaydi o'z tadqiqotida. Shu bois, ushbu tadqiqotda germenevtikani alohida falsafiy ta'limot sifatida o'rganib, uning ontologik, gnoseologik, aksiologik, fenomenologik, psixologik va metodologik jihatlarining milliy g'oyani mustahkamlashdagi ahamiyatini tahlil qilishga harakat qilganlar. Biz esa ona tili ta'lim mazmuni ta'lim jarayonida nutqni germenevtik jihatdan qanday tashkil qilish mumkinligini asoslashga harakat qilamiz. Ma'lumki, nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi matndir. Shunday ekan, matnni talqin qilish orqali talabalar ni tarbiyalash ona tili ta'lim mazmuni ta'limda asosiy yo'nalishlaridan bir bo'lmog'i lozim. U ayniqsa, ona tili ta'lim mazmuni ta'limda alohida ahamiyatga ega.

### **NATIJA VA TAHLIL**

O'zbek tilshunosligida matn va matn nazariyasi haqida ilk bor akademik G'.Abdurahmonov o'z qarashlarini bayon etgan bo'lsa, so'ng A.G'ulomov, M.Asqarovalar tomonidan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida matn birlik sifatida e'tirof etiladi. Keyinchalik I.Rasulov, M.To'qsonov, M.Mukarramovlar matnning turli tomonlari bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Oliy ta'limda ona tili fanining ijtimoiy funksiyasini o'rganish metodikada muhim ahamiyatga ega. Bu haqda sosiolingvist olim Yu.D.Desheriyev tilning funksiyalarini quyidagilarga ajratadi: 1) kommunikativ funksiya; 2) ijtimoiy funksiya; 3) ekspressiv funksiya; 4) estetik funksiya; 5) gnoseologik funksiya. R.O. Yakobsonning tasniflashiga ko'ra esa oltita funksiya sanaladi: 1) emotiv funksiya (jo'natuvchiga mo'ljallanish, uning emosiyalarini uzatish); 2) kognyutiv funksiya (adresatga mo'ljallanish, unda muayyan holat uyg'onishga intilish); 3) poetik funksiya (axborot shakli uchun); 4) metatil funksiyasi (til sistemasi uchun); 5) fatik funksiya (muloqot uchun); 6) referentiv funksiya (voqyelik uchun).<sup>1</sup>

XX-asrning 1960-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab "matn lingvistikasi" degan yo'nalish katta sur'at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uning tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtai nazarlardan tahlil etila boshlandi. Bu soha atrofida o'ziga xos, aytish mumkin bo'lsa, juda katta "shov-shuv" paydo bo'ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, bazasi deb hisobladilar. G'arbiy Yevropa

<sup>1</sup> Desheriev Yu.D. Zakono mernosti razvitiya literaturnx yazjov narodov v sovetkuyu epoxu (Razvitie obidestvennx funktsiy literaturnnx yazjov). - M.: Nauka, 1976. - S.432.)

mamlakatlarida matn lingvistikasi bo‘yicha davriy nashrlar va ilmiy to‘plamlar nashr etildi, maxsus ilmiy jamoalar tuzildi, monografiyalar bosildi, darsliklar, hatto maktablar uchun darsliklar chiqarildi.<sup>2</sup> Matn va uni o‘rganish, talqin qilish kabilar tilshunoslik fanining poydevori ekan, demak, ona tili o‘qitish metodikasi fanining ham asosiy o‘zagi hisoblanadi. XX asrning dastlabki yillaridan hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar orasida Sh.Sh.Yuldashevaning “Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”<sup>3</sup>, o‘quvchilarning nutqiy malakalarini o‘stirish masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, A.K.Nisanbayevaning “Ona tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari”,<sup>4</sup> A.R.Ergashevaning “Ona tili darslarida nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o‘stirish metodikasi”,<sup>5</sup> T.Ziyodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish”<sup>6</sup> kabi tadqiqotlari esa o‘quvchilar va talabalarning o‘zbek tilida nutqini o‘stirish masalalariga bag‘ishlangan. R.A.Yo‘ldoshevning “Ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi”<sup>7</sup> tadqiqotida esa eng samarador usullardan biri talqin etiladi. N.Z Umarovanning “Talabalarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi”<sup>8</sup> mavzusida olib borilgan tadqiqoti nutq o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni ilgari suradi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda nutq madaniyati, notiq nutqi, nutq o‘stirish, og‘zaki va yozma nutq muloqot madaniyati, so‘z boyligini oshirish, kasbiy pedagogik muloqot madaniyati masalalari til, pedagogika, metodika fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinib, muammo ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Tilshunoslikdagi dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo‘yicha misli ko‘rilmagan miqdorda tadqiqotlar yuzaga kelganligini va matn lingvistikasi mustaqil tilshunoslik fani sifatida to‘la e’tirof etilganligini ta’kidlar ekan, tadqiqotlardagi bu e’tirofga tamal bo‘lgan asosiy qoidalarni quyidagicha guruhlariga bo‘lib umumlashtiradi: 1. Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap-fikr esa faqat xususiy holat, matnning alohida turidir.

Ona tili ta’lim mazmunida keng planda tadqiq etilayotgan matn va uni o‘rganish masalasi nutq o‘stirishda qanday olib borilmoqda, degan savol tug‘iladi

<sup>2</sup> (Bu haqda qar.: Nikolaeva T.M. Lingvistika teksta. Sovremennoe sostoyanie i perspektivi/ / Novoe v zarubejnoj lingvistike. Vip. 8. Lingvistika teksta. — M.: Progress, 1978. S. 5-39. )

<sup>3</sup>Sh.Sh.Yuldasheva “Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari” (ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan akademik litseylar misolida) ped.fan.nomz.diss. – T., 2008, –133 b.

<sup>4</sup>A.K.Nisanboeva. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari (Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) ped.fan.nomz.diss.. – T., 1998, – 160 b.

<sup>5</sup>A.R.Ergasheva Ona tili darslarida nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o‘stirish metodikasi, – T.,2010. -69 b

<sup>6</sup>T.Ziyodova. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish: ped.fan.nomz.diss.... –T.,1995. – 141 b.

<sup>7</sup>R.A.Yo‘ldoshev. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi (monografiya) – T., 2012. – 214 b.

<sup>8</sup>N.Z Umarova. Talabalarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi (texnika oliy o‘quv yurtlarining rusiyzabon guruhlarini misolida): ped.fan.nomz.... diss., – T., 2007. – 135 b.

Nutqning funksiyasini metodologik tavsiflash uning bir qancha funksiyasini aniq ifodalashni ko‘rsatib beradi. Nutq o‘stirishda hermenevtik qonun qoidalarga amal qilgan holda emotiv funksiya (jo‘natuvchiga mo‘ljallanish, uning emosiyalarini uzatish), kognitiv funksiya (adresatga mo‘ljallanish, unda muayyan holat uyg‘onishga intilish), fatik funksiya (muloqot uchun) kabi turlarini amaliyotda qo‘llash muhim hisoblanadi. Ona tili ta‘lim mazmuni ta‘lim tiimida nutq o‘stirish fani garchi metodik, ta‘limiy fan hisoblansa-da, u nazariy fan tilshunoslik asosidagi bilishga asoslanadi. Bilish esa falsafa fanining asosi sanaladi, har qaysi fan, jumladan, tilshunoslik ham, til o‘qitish metodikasi ham falsafa bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. O‘qitishda falsafiy yo‘nalish ushbu maqola metodologiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘lumki, nutqning o‘z taqiqoti yuzasidan qanday xulosaga kelishi, ilmiy haqiqatni qay darajada obyektiv ochib berishi uning qanday falsafiy yo‘nalishga asoslanishiga bog‘liq. Har bir ona tili o‘qituvchisi muayyan falsafiy yo‘nalishga asoslanmog‘i shart. Hozirgi kunda hermenevtika gumanitar fanlarning metodologik asosi hisoblanadi. Matnda muallifning nima demoqchiligini o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri tushuna olish hermenevtikaning vazifasi sanaladi.

Hozirgi kunda hermenevtika gumanitar fanlarning metodologik asosi hisoblanadi. Matnda muallifning nima demoqchiligini o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri tushuna olish hermenevtikaning asosiy vazifasi sanaladi.

Ma‘lumki, har bir tushunchaning o‘zining ma‘nosi bor, jumladan, tushunish “tushuntirish” ma‘nosiga hamohang bo‘lgan “anglash”, “anglatish” degan ma‘no “Fiqh” so‘zining etimologiyasi bilan bog‘liqdir. Fiqhda, xususan, ahli sunna val jamoat mazhabining asosiy shoxtomirini tashkil qiluvchi Hanafiya maktabi metodlariga amal qilinadi. Demak, hermenevtikada ham, fiqhda ham milliy urf odatlarimizga mos bo‘lgan tamoyillar o‘rganiladi. Tafsir va ta‘vil, buyuk mutafakkirlarimizning asarlariga sharhlar bizning eng katta ma‘naviy boyligimizdir. G‘arbda Gadamerga davriga kelib hermenevtika to‘la rivojlana boshladi. Gadamer haqiqiy tushunish mahsuldor ekanligini ta‘kidlab, u tarixni bevosita tushunish jarayonini yengillashtirishini ta‘kidlaydi. Hermenevtika ta‘lim jarayonida nega kerak degan savol tug‘iladi. Biror o‘quvchi matnni muallif asarini o‘rganar, undagi hodisa va mohiyatni talqin qilar ekan, o‘rganuvchining tasavvuri, mulohazalari har doim ham asar mazmuni va uning ruhiyatiga to‘g‘ri kelmaydi.

Forobiyning “Rasoil ul-xukamo” asarida ta‘kidlanishicha, tushunishdan avval anglash keladi. Buni zamondoshlarimiz E. Betti, Gadamer hermenevtika va uning sferalari to‘g‘risidagi ta‘limotlaridagina ta‘kidlashdi. Gadamerning matnlarni qismlarga bo‘lib o‘rganish to‘g‘risidagi ta‘limotlari ham ana shu darvda yaratilgan.

Ta‘lim falsafasiga ko‘ra, nazariy, psixologik madaniy fenomenlarning ma‘nosini o‘rganishda hermenevtik yondashuvning ahamiyati katta. Shuning uchun ham ona tili ta‘lim mazmuni ta‘limda talabalarning “bilim – tushunish – anglash ko‘nikmalari” modelini tashkil etish asosida nutq hodisalarining leksik, grammatik ma‘nosini o‘rganishda hermenevtik yondashuvga asoslanamiz va insonning bilish xususiyatiga mos keladigan hermenevtik yondashuv asosida dunyoni ko‘rishning milliy uslubini aks ettiruvchi tizimni joriy etish



maqsadli ekanligini ilmiy, metodik jihatdan tahlil etdik. Ma’lumki, nutqning mazmunni to’la idrok etish uchun blalar tilning leksik, grammatik va talaffuz ko’nikmalarini puxta o’zlashtirgan bo’lishlari talab etiladi. Nutqni idrok etishda leksika va talaffuzni to’g’ri anglay olish umumiy mazmunni tushunishda, grammatikani fahmlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Qisqasi, tinglab tushunish deganda, so’zlovchining nutqini bevosita yoki texnikaviy vositalar yordamida eshitib idrok etish yoki fahmlash tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, tinglab tushunish o’zgarar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdakisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma’nosini ifodalaydi.

Tinglab tushunishda eshitish sezgisi va analizatori orqali axborot olishning asosiy manbalari sifatida muallim nutqi, auditiv texnikaviy qurollardan –magnitafon yozuvi, radio eshittirish, ovozli diafilm, kino(video) film yoki undan parcha hamda televizion ko’rsatuvlar xizmat qiladi. Ona tili ta’lim mazmuni ta’limda tinglab tushunish uchun manba sifatida audiokasseta, radioeshittirish, disk materiallari, ovozli yozuvlardan, kino ko’rsatuvlardan foydalanadi. Masalan tinglab tushunish nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida maktab sharoitiga tatbiqan maqsad va vosita tarzida o’rgatiladi: tinglab tushunish kommunikativ faoliyatning alohida turi sifatida egallanadi, boshqacha aytganda, og’zaki hikoya, kinofilm tarzida tinglanadigan nutqdagi axborot(informasiya)lar o’zlashtiriladi. Hozirgi kunda Ona tili ta’lim mazmuni ta’lim muassasalarida ona tili o’qitish uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Chunonchi, hozirgi zamonaviy axborot kommunikativ vositalari bilan jihozlangan alohida xonalarning va ularda nutq o’stirish mashg’ulotlarining yuqori sifatli o’tish uchun barcha imkoniyatlarning mavjudligi nutq o’stirish mashg’ulotlarida tinglab tushunish mashqlarini bajarish uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

### **XULOSA**

Matn haqidagi barcha tadqiqotlar matnning nutq birligi ekanligini aniqlash asosiga qurilgan bo’lib, u nutqiy jarayonning “o’zi va nutqiy faoliyat natijasi” sifatida talqin etiladi<sup>9</sup>. Matn bo’yicha berilgan ta’riflar tahlil etilganda, u nutqiy faoliyat jarayoni mahsuli bo’lib, mazmuniy bog’liqlik, tugallanganlik, mantiqiy ixchamlik, til ideyalari va norma asosida yondashuv, ma’lum elementlarning birikuvidan tarkib topishi, kommunikativ vazifa bajarish, ideal va pragmatik ma’no ifodalash, lug’aviy birliklarning ma’lum grammatik qonunlar asosida birlashishidan iborat ekanligi ma’lum shaxs yoki shaxslar tomonidan yaratilishi, inson tafakkuri mahsuli bo’lib, murakkab psixo-fiziologik jarayon natijasida hosil bo’lishi va o’z adresantiga egaligi bilan xarakterlanadi. Qisqacha qilib aytganda, “matn nutq ko’rinishi bo’lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Hozirgi kunda ona tili ta’lim mazmuni ta’limda avvalgi darsliklardan farqli o’laroq, darsliklar audio va video disklardan iborat bo’lib, butalabalar uchun o’tiladigan mavzuni yanada kengroq tushunishga imkon beradi. Ona tili ta’lim mazmuni ta’lim mutaxassislarini tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, xalqaro

<sup>9</sup> Turniyozov N. Matn va uning lingvistik tahlili haqida // Xorijiy filologiya, 2003, – № 2. – B. 19.

hamkorlikni kengaytirish, nutq bilan ishlashda germenevtik talablarni amalga oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish davr talabidir. Insonning borliqqa munosabati, uni bilishi, qanday muhitda, sharoitda yashashi, ishlashi kabi omillarga bog‘liq ekan, demak, matnni tushunish, anglash har bir inson tomonidan o‘ziga xos tarzda talqin etiladi. Bilamizki, nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi bu matndir. Shunday ekan, ona tili ta‘lim mazmuni ta‘limda talabalarga matn bilan ishlash asosida nutq o‘stirish orqali tarbiyalash ona tili ta‘lim mazmuni ta‘limda asosiy yo‘nalishlaridan bir bo‘lmog‘i lozim. U ayniqsa, ona tili ta‘lim mazmuni ta‘limda alohida ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Rubenshteyn S.L. Проблемы общуеу psixologii. – M.: Pedagogika, 1976. - 416 s.
2. Leontyev A.N. Проблемы razvitiya psixiki. – M.: Pedagogika, 1972. -576 s.
3. Ponomarev Ya.A. Psixologiya tvorchestva i pedagogika, 1976. -280 s.
4. Rozikov O.R. Teoreticheskiye osnovy optimalnogo primeneniya sistema uchebnyx zadach v obuchenii i shkolniki (na materialax gumanitarnyx predmetov). Avtoreferat diss...dok. ped. nauk. – Tbilisi, – 1986. -50 s.
5. T.Kaziyeva. Talabalarning tinglab tushunish anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta‘limotdan foydalanish texnologiyalari. Pedagogika fanlari doktorlik dissertasiya. T.2023 yil
6. Djon Dyui. Общuestvo i yego problemy John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Общuestvo i yego problemy. — Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. — M., 2002.
7. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV-XX asr manbalari. Dokt.dissertatsiyasi. - Toshkent: Akademiya, 1998. -250 b.; Baxodir Karim Abdulla Qodiriy. -Toshkent: Fan, 2006. -246 b.;
8. Raximov I., Utamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari. -Toshkent: Universitet, 2005. -256 b.; Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. -Toshkent: Universitet, 2005. -390 b.;
9. Shermuxamedova N. Gnoseologiya. -Toshkent: UFMJ, 2007. -360 s.; Nazarov K. Bilish falsafasi.. -Toshkent: Universitet, 2005. -320 b.
10. Baxodir Karim Abdulla Qodiriy. -Toshkent: Fan, 2006. -B.7.
11. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. -Toshkent: Universitet, 2005. - B. 313.
12. A.K.Nisanboeva. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari (Ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) ped.fan.nomz.diss.. – T., 1998, – 160 b.
13. A.R.Ergasheva Ona tili darslarida nazariy ma‘lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o‘stirish metodikasi, – T.,2010. -69 b
14. T.Ziyodova. Ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish:

ped.fan.nomz.diss.... –T.,1995. – 141 b.

15. R.A.Yo‘ldoshev. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi (monografiya) – T., 2012. – 214 b.

16.N.Z Umarova. Talabalarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi (texnika oliy o‘quv yurtlarining rusiyzabon guruhlari misolida): ped.fan.nomz.... diss., – T., 2007. – 135 b.